

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA HAYVON NOMLARI BILAN BOG‘LIQ RAMZLAR TALQINI.

Ikromova Lola Boltayevna

BuxDU, Fransuz filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

lolaxon-1317@mail.ru

Suvonova Maftuna G‘olib qizi

BuxDU xorijiy tillar fakultetei, 4-kurs

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maqollarning hayvonlar bilan bog‘liq ramziy va kodlangan tarzda ifodalaovchi salbiy va ijobiy belgilari haqida so‘z boradi. Xalq og‘zaki ijodida uchraydigan hayvon timsollari orqali insonlarning xususiyatlari ochib beriladi.*

Abstract. *This article discusses the symbolic and coded negative and positive signs of proverbs related to animals. The characteristics of people are revealed through animal symbols found in folklore..*

Kalit so‘zlar : *folklor, maqollar, hayvonlar obrazi, ijobiy va salbiy belgilar.*

Keywords: : *folklore, proverbs, image of animals, positive and negative signs.*

Biz bilamizki dunyo xalqlarining o‘ziga xos xalq og‘zaki ijodi mavjud. Bu boylik asrlar davomida o‘zidan keyingi avlodlarga og‘izdan-og‘izga o‘tib boradi. Maqollar haqida so‘z yuritsak, bu folklor boylikni turli sohalarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin. Aytish kerakki, bugungi kunda hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan ya’ni, zoonim komponentli maqollar va matallarning kam tadqiq etilganligi bois, hozirda bu sohaga e’tibor qaratilmoqda. Shu qatorda, o‘zbek xalq maqollari va hikmatlarida hayvon timsoli ko‘pincha ma’lum bir sifat, xususiyat yoki holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu maqollarda hayvonlar orqali ularning timsolida o‘zbek xalqining tarixi madaniyati dunyo qarashi, yashash tarzi, hayoti, insoniylik sifatleri va yana juda ko‘p shunga o‘xshash sifatlar yoritilib kelingan. Bu sifatlar hayvonlar orqali ifodalangani ham juda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, qadim qadim zamonlardan odamlar mif, asotirlarga ishonganlari ular haqidagi tasavvurlari, fikrlari ularga nisbatan qo‘rquv yoki ishonch ham ancha vaqtgacha xalq og‘zidan tushmagan. Mifologik obrazlar deyarli barchasi hayvonlar bo‘lishgan yoki tasavvurdagi maxluqlar bo‘lishgan. Yana bir misol qilib masallarni ham keltrish mumkin. Masalnavis Ezop o‘zining masallarida hayvonlar orqali insonlarning yaxshi va yomon xislatlarini ochib bergan. O‘zbek mumtoz she’riyatining yirik namoyandasi, hajviy asarlar bitishda ham yuksak mahoratga ega bo‘lgan, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida ham masallarning sara namunalarini uchratish mumkin. A.Navoiyning masal uslubida yozilgan asarlarini o‘rgangan olimlar shunday xulosaga keladi: “o‘zbek klassik adabiyotida bu janr XIV asrdan ko‘rina boshlaydi. Uning rivojida, xususan, Alisher Navoiy muhim rol o‘ynadi. “Hayratul-abror”dagi “Sher va Durroj”, “Saddi Iskandariy”dagi “Bulbul hikoyati”, “Kabutar hikoyati” masallari masal janrining barcha formal-poetik va g‘oyaviy talabalariga to‘la javob beradi” Bundan ko‘rinib turibdiki, masal janri keng ko‘lamli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan tarbiyaviy asardir (Jumanova, 2023, 120 bet).

Bunday maqollarni ham sinflash mumkin. lingvistik nuqtai nazardan olib qarasaq, zoologik terminlarning o'ziga yarasha qadimiy tarixi mavjud. Bunga misol qilib, avvalambor o'zimizning ma'naviy boyligimiz hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'otit turk" asariga murojaat qilamiz. Chunki bu asarda dastavval 400 ga yaqin zoonimlar, ya'ni yuzga yaqin qush nomlari tilga olingan. "**A.Shcherbak tadqiqotida** (Maxamatova, 2022, 267-bet) *keltirilgan bir turdagi hayvonlarning jinsiga, yoshiga ko'ra turlicha nomlanishi haqidagi ma'lumotlar turkiy xalqlarning chorvachilikka asoslangan turmush tarzi, madaniy munosabatlari haqida ma'lumot beradi*". Qirg'iz tadqiqotchisi E.Aydogmush turk va qirg'iz tillaridagi zoonimlarni o'rgangan. "*Har ikkala tildagi mayda hayvonlarning jinsi, yoshiga ko'ra nomlari, xonaki va yovvoyi hayvon nomlari tasniflangan, zoonim komponentli frazeologizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, xonaki va yovvoyi hayvon nomlarining yasalishi o'rganilib, zooleksikaning tarixiy qatlamlari aniqlangan. Tadqiqot zoonimlar etimologiyasi, shakllanish tarixini yoritishda ahamiyatlidir.* Masalan qushlar haqidagi maqollardan misol keltiramiz.

"Qarg'a uchgan joyda, so'zlar ucha olmaydi."

Bunda bekorchi so'zlardan ko'ra oldin harakat qilmoq darkor ekanligini ta'kidlash uchun ishlatilgan.

"Qushlar suruvi ozgina ovqatga to'ymaydi"

Bu maqolda, kattaroq maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar zarurligini ko'rsatishi mumkin.

"Tovusni raqsga o'rgatmoqchi."

Bu ibora insonning tabiiy fazilatlarini yoki ko'nikmalarini o'zgartirishga urinish, behuda harakatlarni anglatishi mumkin.

Maqollar ham boshqa ideomatik va frazeologik birliklar qatori o'rganilish tizimi o'ziga xos yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Yahni, maqollar qiyosiy o'rganilganda, o'z semantikasidan kelib chiqqan holda funktsional, semantik va shaklan mos kelishi yoki kelmaslik hodisalari bilan belgilanadi (Azamov, 2013, 6-bet). Maqol va hikmatlarda hayvonlardan ma'lum g'oya va qadriyatlarni ifodalash uchun timsol sifatida foydalaniladi va ular ko'pincha o'zbek madaniyati va donishmandligi haqidagi an'anaviy g'oyalar bilan bog'lanadi. Demak, hayvon nomlari bilan bog'liq bo'lgan timsollar o'zbek xalq maqollarida jamiyat hayotidagi xulq-atvor tamoyillarini, hikmatli saboqlarni yetkazishda qo'llanadi. Hayvonlar bilan bog'liq yana misollar keltirish mumkin: (Mirzayev & Musoqulov, 2005, 246-bet)

Bedana tezotar bo'lsa,

O'z boshini o'zi yer.

Bedananing «vit» degani — qochgani.

Bo'ri bo'ronda quturar.

Bo'rining ozig'i — burnida.

Zag'izg'on sog'ligidan o'lmas, suqligidan o'lar.

Zag'izg'on chaqib to'q bo'lmas.

Zag‘cha sigirdan qo‘rqmas.

Itida jiyan yo‘q,
Baqada — qayin.

Itidan suyak ortmas,
Mushukdan — bez.

Ot — yigitning yo‘ldoshi.
Ot — yigitning qanoti.

Ot olsang, ho‘kiz qorindan ol,
Ho‘kiz olsang, ot qorindan ol.

Tishini ko‘rguncha, ishini ko‘r.

Toy otga yetkazar,
Ot — murodga.

Bunga o‘xshash maqollar hayotimizda juda ko‘plab uchrab turadi. O‘zbek xalqi har bir gapda ta‘kidlash, tasdiqlash va urg‘u berish uchun yanada ta‘sirliroq bo‘lishi uchun maqollardan foydalanishadi. Maqollar esa albatta ibratli tushuncha kasb etadi. Azaldan bizga me‘ros bo‘lib kelayotgan bu maqollar juda ibratli mazmunga egadir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi maqollarda ko‘proq turli xil hayvonlar timsolidan foydalanishgan Bunga misol qilib:

*Ayрилganni ayiq yer bo‘linganni bo‘ri yer,
Eshak minganning oyog‘i tinmas, Toy otga yetkazar,
Ot — murodga, Tog‘ bo‘risiz bo‘lmas,
To‘qay arslonsiz bo‘lmas*

Bunday maqollardan ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Ko‘rinib turibdiki deyarli ko‘plab maqollarda hayvon obrazlari uchraydi. Hayvonlar timsolida insonlarning hatti harakatlarini izohlab berilishi qulay hisoblangan. Maqollarda keladigan har bir bunday obrazining o‘z ma‘nosi bo‘lgan. Masalan: “ *it insonning do‘sti* “. Bu yerda it obrazi ijobiy ma‘noda qo‘llanilgan. Itni vafodorlik sadoqat, do‘stlik timsollarida olingan. Yana bir misol: **Said Ahmad**ning “*Qorako‘z Majnun*” asarida kelgan maqolga e‘tiborni qaratsak, “ *El tinsa ham it tinmas, el qo‘nmay it tinmas*” bunda esa salbiy obrazni ifodalab kelgan. “*It bo‘lur eshshak bo‘lur aslo bo‘lmas odami*”, “*It tuqqanini tanimas*”, “*It to‘yi janjalsiz o‘tmas*” kabi maqollarni misol keltirsak bo‘ladi. Bu maqollarda salbiy ma‘no egallaydi. Demak, “*it*”ni ochko‘z vahshiy urushqoq obrazlada ko‘rishimiz mumkin.

Maqollar so‘z san‘ati mahsuli sifatida o‘z ma‘nosida, ko‘chma ma‘noda va bar ikkala ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. (Azamov, 2013, 9-bet)

Maqollar turli jins va turli xil hayvon nomlari bilan boydir. Shunday maqollar borki ularning turli xususiyatlari va insoniyatga bog‘liq xususiyatlari va harakatlari bilan taqqoslanadi. Misol uchun: "**Ot** " obrazi timsoli, bu ot hayvonining qadim zamonlardan buyon insonlarning og‘or ishlarida yordamchisi uzoq safarlarda urushlarda va marosimlarda hamrohi, xavf xatarlardan saqlovchi do‘sti sifatida ifodalanadi. Hattoki , *ot uxlab yotgan egasini ilonning hamlasidan qutqargan* degan rivoyat ham mavjud. Ot haqida Chopqir ot — o‘tkir pichoq, Ot — yigitning yo‘ldoshi, Ot — yigitning qanoti, bu kabi maqollardan ko‘plab topishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilrabo Jumanova. (2023) Masal mumtoz adabiyotning qadimiy janri sifatida. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. 119-129
2. Maxamatova Maxliyo. (2022). O‘zbek xalq maqollarida zoomorf kodlarning ifodalanishi. Volume 2 | issue 9 issn 2181-1784 scientific Journal. 265-271
3. Azamov O.B. (2013) Hayvonlar nomlari bilan bog‘liq nemischa maqollari va ularning tarjimasi. Andijon. (9-bet)
4. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. (2005). O‘zbek xalq
5. maqollari. (246-bet) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati.
6. Azamov O.B. (2013) Hayvonlar nomlari bilan bog‘liq nemischa maqollari va ularning tarjimasi, Andijon . (9-bet)
7. Davronovna, X. S. (2022). Viktor Gyugoning “Misérables” romanida qo‘llanilgan ayrim frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari. Issn 2181-3191 Volume 1, issue 2 may 2022, 361. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/659>
8. M.M Jurayeva, Linguocognitive, national and cultural features of the modality category in French and Uzbek fairy tales. Tashkent-2016 [5, p.38]
9. Ikromova L.B. Tilshunoslikda freym tushunchasining ifodalanishi ilmiy-nazariy qarashlar. Scientific information of Bukhara State University 28.08. 2020.4 / 2020